

PAPER

## MOLYER HAYOTI VA UNING “TORTYUF” ASARI TAHLILI

Ne’ matillaryeva Mohlaroy<sup>1</sup>, \* and Tursunaliyeva Ominaxon<sup>2</sup>

<sup>1</sup>Qo ‘qon universiteti Andijon filiali talabasi and <sup>2</sup>Qo ‘qon Universiteti Andijon Filiali talabasi

\* Mohlaroy1@gmail.com

### Abstract

Mazkur maqola fransuz adibi Molyerning “Tortyuf” asari asosida yozilgan bo ‘lib, unda firibgarlik va ikkiyuzlamachilik illatlarining fosh qilishi haqidagi mavzular tahlil qilingan. Shuningdek, maqolada odamiylik, axloq va odob qoidalari tavsiflab berilgan.

**Key words:** Tragediya, komediya, cherkov, firibgar, “Tortyuf”, klassitsizm, an’ ana, tanqid.

### Kirish

XVII asr fransuz adabiyotining yorqin namoyondasi, o ‘zining taxallusi bilan mashhur Molyer Fransiya va yangi Yevropaning buyuk komediografi, mumtoz komediyaning yaratuvchisi, kasbi bo ‘yicha aktyor va teatrning direktori. Molyer xalq teatr an’ analari bilan klassitsizm yetuklarini umumlashtirib, ijtimoiy – maishiy komediya janrini yaratdi.

1658- yillarda Molyer o ‘z truppasi bilan Parij va saroy teatralida pyesalar qo ‘ydi. Ko ‘plab komediyalar yaratdi. Molyer komediyalarida chuquq falsafiy va axloqiy masalalar qo ‘yilgan. Ularda yaxshi fazilatli kishilar tasvirlangan, lekin pyesa qahronmlari haddan tashqari talablar qo ‘yib, sog ‘lom fikr yuritishdan voz kechadilar, natijada bu, amalda yaxshi fazilatning yo ‘q bo ‘lishiga olib keladi.

Molyer ijodi jahon teatri rivojiga samarali ta’ sir etgan. XIX asr boshida Fransuz akademiyasiga Molyerning byusti qo ‘yilgan. Har yili 17- fevralda – buyuk fransuz komediografi 1673- yil 17- fevralda so ‘nggi bor sahnaga chiqib rol o ‘ynagan kunda Parijdagi mashhur “Komediy Fransuz” teatrinda Molyer pyesalarini namoyish etildi. Molyerning ayrim asarlari o ‘zbek tiliga tarjima qilingan: “Xasis” [1925], “Tortyuf” [1941], “Skapen nayranglari” [1950] va boshqalar.

### Adabiyotlar tahlili va metodlar

Molyerning shoh asari –“Tortyuf” komediyasi bo ‘lib, u 1644 –yil yozilgan. “Tortyuf” asari inson psixologiyasi, axloqiy qadriyat-

lar, ikkiyuzlamachilik va diniy soxtakorlik mavzulariga bag ‘ishlangan bo ‘lib, bugungi kungacha o ‘z dolzarbligini yo ‘qotmagan.

Asar badavlat Orgonning uyi ichida suhbatlar bilan boshlanadi. Uyning xizmatchisi Dorina, Orgonning qizi Marianna, o ‘g ‘li Damis va boshqa qarindoshlari yig ‘ilib, Orgonning so ‘nggi vaqt-larda faqat “Tortyuf” degan notanish bir dindor odamga ishongani, bor e’ tiborini unga qaratayotgani haqida gaplashishadi. Ular barchalari bu odamdan shubhalanib, ishoni maydi, faqatgina Orgon va uning onasi Pernel Xonim Tortyufni maqtab, uni haqiqiy avliyo deb bilishadi. Tortyuf o ‘zini dindor, bechora, hokisor qilib ko ‘rsatadi. Go ‘yoki pashshaga ham ozor bermaydigandek, farishta qilib ko ‘rsatadi. Orgon Tortyufni shu darajada yaxshi ko ‘rib qolgan ediki, hatto, o ‘z qizini ham unga erga bermoqchi bo ‘ladi. Lekin qizi boshqa bir yigitni ya’ ni Valerni sevardi. Buni bilgan Orgon Valerni qartabozlikda ayblab, uni yomon ko ‘rsatib, qizini ko ‘nglini sovtumoqchi bo ‘ladi.

Ammo Dorina bunga yo ‘l qo ‘ymaydi. U xizmatchi bo ‘lishiga qaramay, tiliga pichoq tegmaydigan, haqiqatni aytishdan cho ‘chimaydigan, aql- zakovati va o ‘z so ‘zida sobitligi bilan haqiqat tarafdiri bo ‘lib chiqadi. Dorina Tortyufni asl yuzini ko ‘rsatish uchun turli rejalar o ‘laydi. Bir kun uni Elmira ya’ ni Orgonning xotini bilan bir xonada uchrashadiradi. Tortyuf uyalmay – netmay Orgonning ayliga sevgi izhor qiladi. Bu suhbatni Orgonning o ‘g ‘li eshitib qoladi va buni otasiga aytib Tortyufni uydan haydatmoqchi bo ‘ladi. Lekin Orgon haqiqatni aytgan o ‘g ‘li Damisni emas, balki, makkor Tortyufga ishonadi.

Va Damisga: “Yo ‘qol! O ‘g ‘lim yo ‘q also … Men seni merosdan ham mahrum etaman! Bu ham oz, la’ nati … Seni oq qilaman! –

deya so 'zini yakunlaydi.

## Tahlil va natijalar

Bu voqealarni ko 'rgan Elmira erini Tortyuf yomon niyatli odam ekanligiga ishontirish uchun Elmira bir xiyla ishlataadi. Or-gonni olib kirib, stolni tagiga yashirib, Tortyufni chaqirtiradi va Tortyufni muhabbatini qabul qilganiga ishontiradi.

Tortyuf : "Oh ! Jononning tili shunday sayrarkan, Qanday lazzat va quvonch dilga bag 'ishlar! Men shavq bilan, berilib uni tinglayman, Qo 'rqamen-ki, biron so 'z chaqilmay qolar ...Siz tomongan sevilish -Butun orzu intilishning yuksak moyasi ! Men uchun bundan oliv yo 'qdir saodat ! Lutfiy karamingizni qilsam-da hurmat, Lekin ko 'nglimning bordir andak shubhasi... Boshimga beixtiyor kelar shu fikr: Kutilmagan marhamat ko 'rsatib, balki Buzarsiz Mariannaga uylanishimni, - Baxtni taqdir yuborgan deb balsam agar, Shunday so 'zingiz meni chin, Sehrgar so 'zlar bilan emas, jonli noz - Erkalash bilan dilning sevgi -firoqni Yapatgan chog 'ingizda shuba qolmas oz !"

Shu tariqa suhbat davom etadi. Bu so 'zlarini o 'z quloglari bilan eshitgan Orgon Tortyufni asl yuzini ko 'radi. Uni uydan haydamo-qchi edi. Ammo barcha mol -mulkiniunga rasmiylashtirib bergan edi. Tortyuf esa bu imkoniyatdan foydalanib, Orgonga qarshi chiqadi, uyini bo 'shatishni talab qiladi va politsiyani chaqirishga urinadi. Organ butunlay tushkunlikka tushadi. Oila a' zolariunga yordam berishga urinadi. Nihoyat, qirol vakillari keladi va vaziyatni o 'rganib chiqadi. Ma' lum bo 'lishicha, Tortyuf avval ham firibgarlik bilan shug 'ullangan jinoyatchi bo 'lgan. Qirol uni hibsga olish haqida buyruq bergan. Adolat tiklanadi. Tortyuf hibsga olinadi. Orgon o 'z xatolarini tan olib, pushaymon bo 'ladi. Marianna sevgan yigit Volerga turmushga chiqadi. Organlar oilasi yana baxtli hayotga qaytadi.

## Xulosa

Xulosa qilib aytganda "Tortyuf" – bu komediya ko 'rinishidagi ijtimoiy tanqid bo 'lib, u zamonaviylikni ham o 'zida aks ettiradi. Moyer diniy tushunchalarni suiiste' mol qilish orqali manfaat ortitayotgan shaxslar jamiyatda yuzaga kelgan ko 'r -ko 'rona ishonch va aqida parastlikni tanqid qiladi.

Adib bu asar orqali odamlarning soddaligidan foydalanib, ularni alvdov yyo 'li bilan boshqarayotganlarni fosh qoladi. Bu asarning asosiy g 'oyasi, dinni niqob sifatida ishlatuvchi ikkiyu-zlamachilarga qarshi kurash, soddalik va ko 'rliking zararli oqibatlari, haqiqat va sog 'lom aql oxir - oqibat g 'alaba qozonishidir Shunday ekan, har doim ham yurakka qulq solavermay, aqlga ham tayanib, oltin o 'rdaliqni topgan holda ish ko 'rmoq darkor.

## LITERATURE

- QODIROV, A. (2025). BADIY ASAR TAHLILI VA DIN INTEGRATSIYASI: (Alisher Navoiy ijodi misolida). Hamkor kon-

ferensiyalar, 1(11), 386-388.

2. Qodirov, A. (2014). USLUB ADABIYOTSHUNOSLIKNING MUHIM KATEGORIYASI SIFATIDA. University Research Base, 857-860.
3. Abdulazizbek, Q. (2024). USLUB ADABIYOTSHUNOSLIKNING MUHIM KATEGORIYASI SIFATIDA. Talqin va tadqiqotlar ilmiy-uslubiy jurnali, 2(42), 144-149.
4. Qodirov, A., Inomjonova, M., Olimova, X. (2025). ADABIYOTSHUNOSLIKDA BADIY ASAR TILI VA BADIY NUTQ USLUBI. Hayka i tekhnologiya v sovremennom mire, 4(5), 36-38.
5. O 'G ' Li, Q. A. L. (2023). ADABIYOTSHUNOS USLUBI HAQIDA (DILMUROD QURONOV IJODI MISOLIDA). World of Philology, 2(2), 46-50.
6. Kobilova, Z. B. (2021). Amiriy and fazliy. Asian Journal of Multidimensional Research, 10(9), 271-276.
7. Kobilova, Z. (2022). Image of a Drinker and a Hermit in the Amir Al-Ghazali. EUROPEAN JOURNAL OF INNOVATION IN NONFORMAL EDUCATION, 2(4), 173-176.
8. Qobilova, Z. (2020, December). THE ARTISTIC-AESTHETIC EFFECT OF AMIRI'S POETRY SCOPE. In Конференции.
9. Haliljonovna, S. K. (2024). PSYCHOLOGICAL POSSIBILITIES OF FORMING INTERESTS IN VISUAL ARTS IN PRESCHOOL CHILDREN. Galaxy International Interdisciplinary Research Journal, 12(3), 438-442.
10. Жахонгирова, Тамила; „ЭВОЛЮЦИЯ НЕГАТИВНЫХ ЭМОЦИЙ В АНГЛИЙСКОЙ ЛИТЕРАТУРЕ: СЕМАНТИЧЕСКИЙ АНАЛИЗ, Ta'limning zamonaviy transformatsiyasi, 11, 2, 18-20, 2024,
11. Andreyevna, Jaxongirova Tamila; ,CURRENT TRENDS AND DEVELOPMENT FACTORS IN THE APPLICATION OF DIGITAL TECHNOLOGIES IN EDUCATION,Ta'llimda raqamlı texnologiyalarni tadbiq etishning zamonaviy tendensiyalari va rivojlanish omillari, 28, 1, 230-233, 2024,
12. Khabibullaeva F.K. The Problem of Adequacy in Russian Translations of A. Kadiri' s novel "The Past Days" . Toronto. Design Engineering. 2022. -P. 6091-6101.
13. Abdullaevna, K. G. (2024). TRANSLATION CHALLENGES IN SCIENTIFIC AND TECHNICAL TRANSLATION WITH A FOCUS ON TERMINOLOGICAL DICTIONARIES. Science and innovation, 3(Special Issue 34), 178-181.
14. Toshboyeva, O. (2024). THE TERMINOLOGY, GENESIS, AND LINGUISTIC FOUNDATIONS OF "BRAND NAMES" IN THE WORLD OF LINGUISTICS. University Research Base, 992-995.